



o'xshatiluvchi obyekt, o'xshovchi obraz va o'xshatma belgi asosiga qurilib, bu o'rinda *o'qchi do'koni* – o'xshatiluvchi obyekt, *buzuq qabrimni* – o'xshovchi obraz va *o'xshatqay* so'zi o'xshatma belgi bo'lib kelgan.

Qushg'a o'xsharkim, tikandur oshyoni, to ko'ngul

Tiyrboroni g'amingdin qoldi paykonlar aro.

Oshiq o'z ko'nglini tikanlarni oshyon etgan qushga o'xshatadi, negaki ko'ngli g'am o'qlari yog'dirgan (tiyrboroni) paykonlar orasida qolib ketganligini aytadi.

O'xshamoq so'zi fe'l turkumiga mansub bo'lganligi uchun fe'lning barcha formalarida kela oladi. Poetik matnda fe'lning vazifaviy shakllarini, fe'lga xos barcha munosabat shakllarini qabul qiladi, lekin doimiy jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olgan so'zni o'ziga tobelantirib shaxs, narsa, hodisalar orasidagi xilma-xil o'xshashliklarni yuzaga chiqara oladi, jo'nalish kelishigini olgan so'z esa to'ldiruvchi yoki hol vazifasida keladi, shoir bir o'rinda ma'shuqaga qarata "*Husnunga o'xshadi jonbaxsh so'zung*" deydi va *o'xshamoq* fe'lini o'tgan zamon III shaxs birlikda qo'llaydi. Yana bir o'rinda esa oshiq ma'shuqasini mubolag'ali tarzda "*Oy-u quyoshqa o'xshata olmasmen anikim*" deya o'xshatish yo'li bilan tasvirlaydi. Ma'lumki, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasida ko'makchi fe'l ma'lum grammatik ma'noni ifodalaydi, masalan, *o'xshata olmasmen* shaklida bo'lishsizlik qo'shimchasini olgan *olmasmen* fe'li holatning yuzaga kelish ma'nosini inkor etishga xizmat qilgan. Quyidagi misolda ham o'xshatma belgi bo'lgan *o'xshamoq* fe'li ko'makchi fe'l bilan qo'llanilgan:

Ey musavvir, topmasang Majnun Layli chehrasin,

Dilbarimni bil munga o'xshash, meni imsol anga.

Baytdan "Ey rassom, agar Majnun va Layli suratini chizishda ularning chehrasini ifodalashga qiynalsang, yorimni Layliga, meni Majnunga o'xshash bil" deydi. *O'xshash bilmoq* ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi eski o'zbek adabiy tili uchun xos bo'lib, yetakchi fe'lning harakat nomi qo'shimchasini olishi o'sha davr tili uchun me'yoriy tuzilish sanalgan.

O'xshamoq so'zi -gan sifat-dosh formasini olib *uchun* ko'makchisi bilan birgalikda sabab holi vazifasida kelib o'xshatish ma'nosini anglatadi:

Gulni o'xshatqan uchun yoring'a go'yo bog' aro,

Muztarib ko'nglum qushidur, bulbuli shaydo emas.

Bunda *gul* – o'xshatiluvchi obyekt, *yor* – o'xshovchi obraz va *o'xshash* so'zi o'xshatma belgi bo'lib kelgan, yorning gulga o'xshashligini anglatuvchi boshqa birorta so'z yo'q. Lekin *o'xshash* so'zi o'zining leksik ma'nosi bilan yorni gulga o'xshata olgan. Mumtoz asarlarda ko'pincha yorni yoki uning yuzini gulga o'xshatish metafora yo'li bilan amalga

oshiriladi. O'xshamoq leksemasi bilan yuzaga keltirilganda qiyos ta'kidlab ko'rsatiladi.

Alisher Navoiy asarlarida o'xshatish uchun muvaffaqiyatli qo'llangan turkiycha *o'xshamoq* so'zining ma'no qirralari sayqallanib, tashbehning badiiy nafasatini ta'minlagan. O'xshatishga asos qilib olinayotgan narsa yoki voqea-hodisalarning mundarijasi kengayib, o'xshatishlarda ko'proq shaxs, predmet va tabiat hodisalarini aks ettirishga, ya'ni sentimental hissiyotlarni o'xshatishlarga singdirgan holda shakllantirishga erishilgan.

ALISHER NAVOIY ASARLARINING MULOQOT NUTQI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Yulduz Qurbonova
magistrant
Samarqand davlat universiteti
(O'zbekiston)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida turli fikr-mushohadalarni ifoda etishda dialogik nutq hamda muloqotning muhim o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: dialogik nutq, muloqot, nutqiy vaziyat, nutqiy muloqot, monologik nutq, nutqiy kommunikatsiya, voqelanish, matn.

Nutqning paydo bo'lishi, uning yuzaga chiqish jarayoni, ko'rinishlari, maqsad va natijasi inson nutqiy faoliyati bilan shug'ullanuvchi barcha soha vakillarini birday qiziqtirishi tabiiy.

Nutqning paydo bo'lishidan tortib uning voqelanishi va samarasini qamrab oluvchi jarayon asosida, albatta, muloqotga bo'lgan zarurat yotadi. Har bir shaxs muloqot jarayoniga kirishar ekan fikrini, his-tuyg'isini, munosabatini yozma yoki og'zaki shaklda bayon etish maqsadi turadi. Muloqot, jumladan nutqiy muloqot inson faoliyatining mahsuli bo'lib, u psixologiya va falsafaning juda chigal muammolaridan biridir. Muloqot, ya'ni odamlarning bir-biri bilan aloqa aralashuvi, bir qarashda oddiy bir narsadek tuyiladi, ammo insoniy faoliyatning muhim ko'rinishlaridan biri bo'lgan muloqotning qanchalik murakkab ijtimoiy jarayon ekanligini tasavvur qilsak, uning naqadar muhimligini ko'rish mumkin. Shu o'rinda, ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida til, nutq va muloqot to'g'risida bayon etilgan fikrlar o'zining mazmun va ahamiyati bilan inson ma'naviyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shoirning "Sab'ayi

sayyor" dostonida bayon etilishicha, so'z, ya'ni nutq insonga berilgan shunday ne'matki, uning latofatini so'z bilan ifodalab bo'lmaydi.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"da: "Tilga e'tibor – elga e'tibor", "Ko'ngul maxzanining qulfi til va ul maxzanning kalidin so'z bil", "Yomon tillik andokkim, el ko'ngliga jarohat yetkurur, imkoni bor har bir yaxshilik so'z orqalidir", - degan hikmatomuz iboralari behudaga keltirimagan. Demak, Alisher Navoiyning ta'kidlashicha, nutq madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi shirinsuxanlikdir. Xushmuomalalik inson ko'rkining mezoni, obro'yining tamal toshi. Buyuk alloma muloqot odobi haqida quyidagicha ta'lim beradi:

So'zni ko'ngulda o'ylamaguncha tilga kelturma,

Har nekum ko'ngulda bor – tilga surma.

Ko'rinadiki, o'quvchilarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda Alisher Navoiy hikmatlarini o'rganishning ahamiyati beqiyosdir. Chunki, Alisher Navoiy daho shoir, dono faylasuf sifatida o'zbek xalqining badiiy-lafziy kamolotini, tafakkur teranligini o'zida mohirona mujassamlantiribgina qolmay, shu bilan birga, nutqning mazmunan teran, shaklan rang-barang, badiiy jihatdan go'zal, mantiqan izchil bo'lishiga harakat qilgan va bunga erishgan.

Demak, nutqning paydo bo'lishidan tortib uning voqelanishi va samarasini qamrab oluvchi jarayon asosida, albatta, muloqotga bo'lgan zarurat yotadi. Shuning uchun mazkur ehtiyojni boshlang'ich asos sifatida belgilash va shunga ko'ra keyingi bosqichlar to'g'risida mulohaza yuritish mumkin. Pragmatik nuqtai nazardan adresant – xabar – adresat tizimida, avvalo, so'zlovchi yoki yozuvchining nutq qaratilgan shaxs bilan muloqotga kirishish maqsadiga sabab bo'lgan fikr keyingi bosqich, ya'ni fikrning voqelanishi – og'zaki yoki yozma tarzda namoyon bo'lishini ta'minlaydi. "Ma'lumki, nutqiy kommunikatsiyaning yuzaga kelishi, voqelanishida uch asosiy unsurning ishtiroki majburiydir, ya'ni so'zlovchi (yozuvchi) – axborot (matn) – tinglovchi (o'quvchi) to'g'ri, nutqiy kommunikatsiyada nutqiy sharoit, axborot kanali (ovoz, yozuv, magnit yozuvi, telefon kabi), muloqot a'zolarining maqomi, yoshi va boshqa belgilari, shuningdek, boshqa turli g'ayrilisoniy vositalarning ham o'rni benihoya muhim, hatto ko'pincha hal qiluvchi ahamiyatga ega. Lekin mazkur uch unsur nutqiy kommunikatsiyaning asosiy ustunlaridir, ularning birortasiz muloqot jarayoni voqe bo'lolmaydi". [1] Inson nutq yo'naltirilgan shaxs bilan muloqotga kirishishdan oldin ifodalaydigan fikrlarini ko'ngildan o'tkazadi, so'z tanlaydi. Nutqiy muloqotga kirishishda so'zlovchi oldiga qo'yilgan maqsad va ichki ma'noning shakllanishini ta'minlovchi til birliklarining tanlanishi muloqotning pragmatik samarasini belgilab beradi. A.R.Luriyaning ta'kidlashicha, "Psixologlar tomonidan olib borilgan nutqning rivojlanishiga oid tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ma'noning keng nutqqa ko'chishi ichki nutq vositasida amalga oshadi." [2] Demak,

ichki nutq asosida shakllangan fikr tashqi nutqda nutqiy muloqot ishtirokchilari miqdoriga qarab monolog, dialog va polilog kabi ko'rinishlarga ega bo'ladi. O'zbek tilshunosligida nutqning bu ko'rinishlari, ularning sintaktik sathda tutgan o'rni, funksional-semantik imkoniyatlari ma'lum darajada o'rganilgan.^[3] Monologik nutq yakka shaxsning voqelik faktlariga munosabati, ruhiy kechinmalari ifodasi bo'lsa, polilogik nutq ma'lum mavzu va maqsad atrofida kechgan ko'pchilikning fikr almashishi sifatida namoyon bo'ladi. "Dialogik matn ikki shaxsning mavzuiy va mantiqiy bir butunlikni tashkil etadigan, biri ikkinchisini to'ldirib, aniqlab, izohlab keladigan gaplar yig'indisidan tashkil topgan bir butun nutqiy birlikdir".^[4]

Dialogning pragmatik tabiatini belgilashda kommunikativ vaziyat muhim o'rin tutadi. Bunda muloqot ishtirokchilarining o'zaro munosabatini, nutqiy vaziyatdagi mavqei, o'dob-axloqi, ma'naviy saviyasini ko'rsatishda dialogning o'rni beqiyos. Chunki "Har qanday diskurs ishtirokchilari o'ziga berilgan imkoniyatlar yordamida munosabatga kirishadi. Uning nutqdagi hokimlik darajasi o'sha vaziyatning o'zida hatti-harakatda ham sezila boshlaydi"^[5]. Til birliklarining tanlanishi va dialogik nutqda amal qilishida bu omillar badiiy asar tilining estetik ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. Dialogning badiiy asar tilining badiiy-estetik ta'sirchanligini oshirishda muhim vosita ekanligini Hazrat Navoiyning "Farhod va Shirin" asaridan olingan quyidagi parcha misolida ko'rib o'tamiz. Shirin rozi bo'lmaganini eshitgan Xusrav g'azab otiga mindi. Xusrav Arman mamlakatiga lashkar tortdi. Lekin Farhodning bir o'zi uning lashkarini yengib, dushmanning bir askarini bo'lsa-da, shahar qal'asiga yaqinlashtirmadi. Raqibni kuch bilan yengolmagan Xusrav hiyla ishlatib, Farhodni asirga oladi va qarorgohiga olib ketadi. Shunda u Farhodni Shirindan voz kechishga majbur qilmoqchi bo'ladi. Parchada dialogda nutqiy vaziyatda mardligi, jasurligi, kuchliligi, insoniyligi, sevgisi yuqori bo'lgan Farhodning voqea rivoji davomida rivojlanib boruvchi muloqot munosabati ulug'shoir tomonidan dialogik nutqda mahorat bilan ifodalangan. Asarda dialog boshlanishida Xusravning muloqotga kirishishdan maqsadi o'zidan ma'naviy-ruhiy jihatdan ustun bo'lgan Farhoddan nutqiy himoyalaniishga asoslangan. Shuningdek, bu dialogik muloqotda Farhodning ruhiy-ma'naviy qiyofasi, uning ishqda sobit, fikrida qat'iy va alamli ekanligi so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy tomonidan betakror ifodalarda tasvirlangan:

"Dedi: Qaydinsen, ey majnuni gumrah?

Dedi: Majnun vatandin qayda ogah.

Dedi: Nedur sanga olamda resha?

Dedi: Ishq ichra majnunluq hamesha.

Dedi: Bu ishdin o'lmas kasb ro'zi,

Dedi: Kasb o'lsa basdur ishq so'zi.
Dedikim: Ishq o'tidin de fasona!
Dedi: Kuymay kishi topmas nishona.
Dedikim: Kuymagingni ayla ma'lum!
Dedi: Andin erur joh ahli mahrum!
Dedikim: Shahqa bo'lma shirkatandesh!
Dedi: Ishq ichra tengdur shohu darvesh!
Dedi: Joningg'a bu ishdin alam bor!
Dedi: Ishq ichra jondin kimga ham bor?
Dedi: Kishvar beray, kech bu havasdin!
Dedi: Bechora, kech bu multamasdin!
Dedi: Ishq ichra qatling hukm etkum!
Dedi: Ishqida maqsudumg'a yetkum.
Dedi: Bu ishda yo'q sendin yiroq qatl!
Dedi: Bu so'zlaringdin yaxshiroq qatl..."[6]

Ma'lumki, nutq qaratilgan shaxsga nisbatan "Siz" olmoshining qo'llanishi tilimizda hurmat ifodasi sifatida qaraladi. Bu olmoshning dialogik nutqda birlik shakliga almashishi muloqotchilar o'rtasida munosabatlarning yomonlashuvini aks ettiradi.

Muloqotning keyingi bosqichida Xisravning norozilik ifodalovchi xatti-harakati kuchayadi. Uning nutqida hurmat bildiruvchi ifodalar o'rnida betaraf birliklar qo'llaniladi. Farhodda esa o'z sevgisiga ishonch, ishq yo'lida hamma qiyinchiliklarga, hatto o'limga ham tayyor ekanligi tasvirlangan.

Ko'rinadiki, Alisher Navoiy asarlarida personajlar ruhiy holati, atrofdagilarga munosabatini, voqealar rivojini ko'rsatishda dialogik nutq muhim pragmatik vosita sifatida ishtirok etadi. Dialogda verbal va nonverbal vositalarning o'zaro uyg'unlikda bo'lishi ulug'shoir nazmiy va nasriy durdonalari tilining bo'yoqdorligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi.-Toshkent:Fan,2008.-B.30-31.
 2. Luriya A. R. Travmaticheskaya afaziya. – M., 1947. S.85–86.
 3. Boboeva A. Hozirgi o'zbek adabiy tilida to'liqsiz gaplar : Filologiya fanlari nomzodi... diss.- Toshkent, 1968. - 58 b.;
 4. Shomaqsudov A. So'zlashuv stili. O'zbek tili stilistikasi masalalari.- Toshkent,, 1972. –B. 37.;
 5. Lafasov O'. Dialogik nutqda sub'ektiv modallikning ifodalanishi: Filol.fanlari nomzodi ... diss. -Toshkent, 1996. -74 b.
- Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. - Toshkent, 2000.

ALISHER NAVOIYNING "NASOYIM UL-MUHAMMAD" TAZKIRASI HAQIDA

Nusratilloeva Dilnoza Nusratilloevna
magistrant
Navoiy davlat pedagogika instituti
(O'zbekiston)

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoirning "Nasoyim ul-muhammad" asaridagi insonparvarlik g'oyalari, tasavvuf namoyandalarining ibratli hayoti va faoliyatining yoritilganligi, ustoz-shogirdlik munosabatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, donishmandlik, shayx, mashoyix, insonparvarlik.

Biz buyuk shoir va mutafakkir hazrat Alisher Navoiyning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliqi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz. Mustaqillik sharofati bilan buyuk ajdodlarimizning ma'naviy xazinalaridan bahramand bo'lish uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Yaqinda mir Alisher Navoiyning avliyolar hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan «Nasoyim ul-muhammad» tazkirasining mo'tabar qo'lyozmalariga asoslangan ilmiy-tanqidiy tadqiqot matni «Movarounahr» nashriyotida tayyorlanib chop etilgani bu yo'ldagi yana bir qutlug' qadam bo'ldi.

Asarning to'liq nomi "Nasoyim ul-muhammad min shamoyimil futuvvat" bo'lib, "Ulug'lik xushbo'yliklarini taratuvchi sevikli shabadalar" degan ma'noni anglatadi. Buyuk donishmand ajdodimiz bu asarini o'z hayoti davomida to'plagan tajriba va xulosalariga tayanib, umrining oxirgi davrlarida, 901 hijriy yili, ya'ni 1495-96 melodiy yilda yozadi. Unda to'qqiz yuz yil (VII asr boshidan – XV asr oxirigacha bo'lgan muddat) mobaynida Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo, Hindiston va Sharqiy Turkistonda yashab ijod etgan 770 nafar aziz-avliyolarning ibratli hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar aks etgan.

Necha asrdiki, «Nasoyim ul-muhammad» tazkirasini tasavvuf ta'limoti va uning tarixiy jarayonlari to'g'risidagi bebaho manba sifatida olimlar e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Alisher Navoiy ushbu asarini yozgan chog'da tasavvuf ta'limotining buyuk bilimdonlari bo'lmish Sa'uddin Koshg'ariy, Xo'ja Ubaydulloh Ahror, Mavlono Abdurahmon Jomiy kabi donishmandlar olamdan o'tgan hamda tasavvuf tarixi va uning buyuk namoyandalarini hazrat Navoiydek mukammal biladigan mutafakkir Xuroson va Movarounahr mulkida qolmagan edi.

Navoiy ushbu benazir tazkirasini Abdurahmon Jomiyning «Nafahotul uns min hazarotul quds» («Pok zotlar huzuridan esgan do'stlik ishlari») asari yaratilganidan yigirma yil o'tib yozgan. Jomiyning mazkur asari fors tilida yozilgani va undagi arabcha yashirin iboralarning nozik ma'nolari turkiy kitobxonlarga kengroq ma'lum emasligi, bundan tashqari, bir qancha ma'lum va